

MINNATDORCHILIK NUTQIY AKTINING BOSHQA TILLARDA O‘RGANILISHI

Mirjalol Olimovich Ziyayev

O‘qituvchi

"Mendeleev" xususiy maktabi

Farg‘ona, O‘zbekiston

Annotatsiya:

Ushbu ilmiy ishda “Minnatdorchilik nutqiy aktining boshqa tillarda o‘rganilishi” mavzusi o‘rganiladi. Minnatdorchilik nutqiy akti til va madaniyatlararo farqlarni ko‘rsatadigan muhim muloqot vositasi sifatida qaraladi. Har bir til va madaniyatda minnatdorchilik bildirishi, uning ijtimoiy maqsadlari va kontekstlari farq qiladi. Ishda ingliz, fransuz, ispan, yapon va arab tillaridagi minnatdorchilik ifodalari tahlil qilinadi, ularning lingvistik xususiyatlari, ijtimoiy funksiyalari va kommunikativ maqsadlari ko‘rib chiqiladi. Nutqiy aktlarning lokutsiyaviy va illokutiv jihatlari orqali turli tillarda minnatdorchilikning qanday ifodalanishi va qanday maqsadlar ko‘zlanishi tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar: Minnatdorchilik, nutqiy aktlar, boshqa tillar, lingvistika, pragmatika, kommunikatsiya, madaniyatlararo farqlar, illokutiv maqsad, lokutsiya, til va madaniyat.

Kirish

Dunyo tilshunosligida minnatdorchilik nutqiy aktining nazariy masalalari ingliz va nemis tillari misolida ham o‘rganildi. Xususan, V.Ayvazova ingliz va nemis tillarida hosil qilingan “minnatdorchilik” freym-ssenariysining kognitiv xususiyatlarini yoritdi [1]. S.V.Skovorodina esa faqat nemis tilidagi dialogik diskursga xos minnatdorchilik va kechirim nutqiy aktlarining pragmatik xususiyatlarini ochib berdi [2].

Li Syuzyan rus tilidagi minnatdorchilik va kechirim konseptlarini xitoylik til egalari nuqtayi nazaridan o‘rgandi. U minnatdorchilik nutqiy aktlarida, birinchidan, muloqot ishtirokchilarining voqelikka “sen menga yaxshilik qilding va men minnatdorchilik bildirishim shart”, kechirim nutqiy aktlarida esa “men senga yomonlik qildim va kechirim so‘rayman” tarzidagi mo‘ljali aks etishi, ikkinchidan, minnatdorchilik bildirmaslik, kechirim so‘ramaslik norozilik, xafagarchilik, asabiylashuv va boshqa emotsional holatlarni yuzaga keltirishi, oqibatda sheriklar o‘rtasida munosabatlarning buzilishiga olib kelishi, kechirim so‘ramaslik mojarolarni

keltirib chiqarishi mumkinligini ko‘rsatdi. Minnatdorchilik va kechirim nutqiy etiket mohiyatiga xos belgilarni namoyish qilishi, funksional yo‘nalishi, nutqiy akt sifatidagi tabiati hamda xushmuomalalik bilan yaqin aloqada ekanligini ochib berdi [3].

U.Bo ham rus tilidagi muayyan minnatdorchilik nutqiy aktlarini ularga muvofiq bo‘lgan xitoy tili nutqiy aktlari bilan qiyoslab o‘rgandi. Uning fikricha, minnatdorchilik ifodasi ko‘rsatilgan ijtimoiy xulq qoidalari asosida etiket harakatiga javob sifatida reallashuvchi nutqiy janrdir. Bunday nutqiy harakaning bosh maqsadi minnatdorchilik muallifining adresat tomonidan o‘ziga qilingan yaxshilikni qadrlashini ko‘rsatishdir. Qo‘shimcha maqsadi adresatni o‘zi tomonga yo‘naltirishdan iborat. Minnatdorchilik muallifning ma‘lum bir emotsional holatini aks ettiradi, buni jumalardagi so‘zlovchining hissiy munosabatini ifodalovchi komponentlar ham ko‘rsatishi mumkin. Shuning uchun minnatdorchilik etiket janri kommunikativ maqsad nuqtayi nazaridan hamda adresat tuyg‘ulariga ta’sir ko‘rsatuvchi vosita sifatida tavsiflanishi mumkin. Tadqiqotchining aniqlashicha, rus tilidagi minnatdorchilik janri nutqiy vaziyatga moslashuvchan, u bitta gap bilan ham ifodalanishi mumkin bo‘lgan kompleks shakl (gap shaklida ifodalanishini elementar holat hisoblash lozim) va bir nechta jumalarning kombinatsiyasi, ya’ni murakkab realizatsiyasi sifatida ham namoyon bo‘ladi. U.Bo rus xalqining xushmuomalalik, minnatdorchilik haqidagi tasavvurlaridan kelib chiqib, rus va xitoyliklarning minnatdorchilik ifodalashdagi kommunikativ yondashuvini o‘rganish asosida quyidagi xulosalarga kelgan:

a) ruslar xitoyliklarga nisbatan minnatdorchilikni ko‘proq ifodalashadi, ammo ularning minnatdorchilik izhori xitoyliklarnikiga ko‘ra qisqaroq;

b) rus va xitoyliklarning minnatdorchilik nutqiy janri miqdoriy belgisiga ko‘ra farqlanadi (ruscha minnatdorchilik ifodasi xitoychaga nisbatan kam jumalardan tarkib topadi va shu bilan birga, qisqa) hamda “sifat” jihatdan (rus tilida ko‘p hollarda bevosita hamda iltifot va maqtov ifodalovchi bilvosita minnatdorchilik aktlari qorishmasi kuzatiladi; xitoy tilida esa bevosita hamda qoidaga ko‘ra bir nechta maqtov yoki muallif tomonidan olingan foyda tavsifiga ega bilvosita ifodalangan minnatdorchilik aktlari qorishmasi uchraydi;

c) rus va xitoyliklar minnatdorchilik ifodalashda rang-barang yaqinlashuv taktikalaridan foydalanishadi, ammo ayrim vaziyatlarda (rus tilida so‘zlashuvchi xitoyliklar uchun minnatdorchilik bildirish odatiy hol bo‘lganda) xitoyliklarga kechirim yoki e’tiroz janrlari orqali voqelanuvchi masofa saqlash strategiyasi xarakterlidir[4].

Ma'lum bo'ladiki, rus va xitoyliklarning minnatdorchilik aktlarini ifodalashlarida o'ziga xos milliy jihatlar mavjudki, bu masala U Boning rus tilidagi minnatdorchilik nutqiy janrini o'rganishga qaratilgan mazkur tadqiqotida mukammal ochib berilgan.

A.Berdnikova muloqot jarayonida minnatdorchilikning ifodalanishini nutqiy janr sifatida tavsifladi. U rus tilidagi minnatdorchilik semantikasiga ega gaplarni quyidagicha tasnifladi:

- 1) bevosita / bilvosita minnatdorchilik;
- 2) ritual / emotsional, shaxsiy ahamiyatga ega minnatdorchilik;
- 3) motivatsiyali / motivatsiyasiz minnatdorchilik;
- 4) verbal / noverbal minnatdorchilik;

5) aniq adresatga qaratilgan minnatdorchilik / oliy kuchlarga qaratilgan minnatdorchilik [5].

E'tibor qaratilsa, tadqiqotchi minnatdorchilik nutqiy aktlarini tasniflashda yagona tamoyilga asoslanmagan. Tasnifga minnatdorchilikning ifodalash usullari (bevosita va bilvosita), ifodalovchi vositalari (verbal va noverbal), kimga qaratilganligi kabi turli belgilari asos qilib olingan.

Bizningcha, har qanday tasnif bir belgiga asoslanishi maqsadga muvofiq. Obyektning turli belgilariga asoslangan tasnif uning mohiyatini chalkashtirib yuborilishiga sabab bo'lishi mumkin. Shu jihatdan minnatdorchilikni bildiruvchi nutqiy aktlarning ham turli belgilariga asoslangan bir nechta tasnifini yaratish mumkin.

N.A.Trofimova minnatdorchilik nutqiy aktlarini ekspressiv nutqiy aktlar tarkibiga kiritdi. U tilshunoslikda ekspressiv nutqiy aktlar tasnifi, o'rganilishi masalasiga munosabat bildirdi. Ekspressivlarni o'z ichida quyidagi guruhlariga ajratib, semantik, grammatik pragmatik aspektida o'rgandi:

1) sotsiativlar. Muallif sotsiativlarni so'zlovchining muayyan vaziyatlarda tinglovchini o'zi bilan bir xil ijtimoiy guruh a'zosi sifatida tan olinishini ifodalovchi nutqiy aktlar hisoblab, unga salomlashuv, kechirim, tabrik, hamdardlik, minnatdorchilik, afsuslanish, duo qilish kabi nutqiy aktlarni kiritgan;

2) influktivlar. Tadqiqotchi influktivlarni tinglovchi o'zining ijtimoiy va shaxslararo rollarini bajarishini boshqaradigan so'zlovchi sanksiya sifatida murojaat qiladigan emotsional-baho munosabatini ifodalovchi va hissiy ta'sir ko'rsatuvchi nutqiy aktlar hisoblab, ularga olqish, qoralash, iltifot, tahqirlash nutqiy aktlarini kiritgan[6].

N.A.Trofimova ekspressivlarning ko‘rsatilgan ushbu turlaridan kechirim, tilak, tabrik, iltifot, maqto‘v, qoralash, tahqirlash nutqiy aktlarining semantik, grammatik va pragmatik xususiyatlarini yoritgan[7]. Ishda minnatdorchilik nutqiy aktlari maxsus tekshirilmagan.

Xullas, dunyo tilshunosligida, ayniqsa, ingliz, nemis, rus tillari misolida minnatdorchilik nutqiy aktlari sistem-struktur, pragmatik, lingvomadaniy, kognitiv aspektlarda chuqur o‘rganildi.

O‘zbek tilshunosligida muloqot jarayonida so‘zlovchi minnatdorlik hissining nutqda ifodalanish usullari, uning sodir etilishiga turtki beruvchi tashqi omillarni aniqlash, minnatdorchilik nutqiy aktlarining ifodalanish usullari va vositalarini pragmatik, lingvomadaniy, kognitiv aspektlarda monografik planda tadqiq etish dolzarb vazifalardan biri sanaladi.

Foydalangan Adabiyotlar

1. Айвазова В. В. Когнитивное исследование фрейма-сценария "благодарность" в различных видах англоязычного и немецкоязычного дискурса: Дисс. ... канд. филол. наук. – Сургут, 2011. – 229 с.
2. Сковородина С. В. Прагматика реактивных речевых актов в немецком диалогическом дискурсе: Концепты “благодарность” и “извинение”: Дисс. ... канд. филол. наук. – СПб, 2004. – 219 с.
3. Сюзянь Ли. Концепты «благодарность» и «извинение» в языковой картине мира русских: С точки зрения носителя китайского языка и культуры: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – М., 2006. – 23 с
4. Бо У. Речевой жанр благодарности в русском языке: Дисс. канд. филол. наук. – М., 2014. – С. 7
5. Бердникова А.Г. Речевой жанр благодарности: Когнитивный и семантико-прагматический аспекты: Дисс. ... канд. филол. наук. – Новосибирск, 2005. – 224 с.
6. Трофимова Н. А. Экспрессивные речевые акты в диалогическом дискурсе. Семантический, прагматический, грамматический анализ.. – Санкт-Петербург, 2008. – С. 22-23.
7. Трофимова Н. А. Ko‘rsatilgan tadqiqot. – В. 23.